

Asadova Dilbarxon Fayzulloyevna
“Lingvistika” 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar f.f.n., dots Shabanov J.K

TURK VA O'ZBEK TILLARIDA DIPLOMATIK TERMINLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Hozirgi kunda butun dunyo davlatlari faoliyatini diplomatik aloqalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bir mamlakatning boshqa davlat bilan bog'lab turuvchi asosiy tizim bu diplomatiyadir. Diplomatiyaga lingvistik nuqtayi nazardan e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu sohaning o'z tili mavjud. Bu fanda diplomatiya tili deb ataladi. Diplomatiya tili - diplomatik aloqalar va xalqaro shartnomalar tili hisoblanadi. Hozirgi vaqtda majburiy diplomatiya tili yo'q. Umumiy qoidaga binoan tashqi aloqa organlarida o'z milliy tillari qo'llanadi. Ayrim istisnolardan tashqari, ikki tomonlama xalqaro shartnomalar, shuningdek, ishtirokchilari soni cheklangan ko'p tomonlama shartnomalar mazkur tomonlarning tillarida tuziladi. Xalqaro tashkilotlarda va konferensiyalarda tillar tegishli tartib-qoidalar asosida ishlatiladi. Ushbu anjumanlarda tillar rasmiy, ya'ni barcha eng muhim diplomatik hujjatlar tuziluvchi tillarga va ish yuritiladigan tillarga (shu tillarda munozara olib boriladi, loyiha va h.k. tuziladi) bo'linadi. BMT Bosh Assambleyasida rasmiy va ish yuritiladigan 6 tildan — arab, ingliz, ispan, rus, fransuz va xitoy tillaridan foydalaniladi. BMT doirasida va rahbarligida qabul qilinadigan ko'p tomonlama xalqaro shartnomalar (ayniqsa, umumiy tusdagilari) bir xil matnga ega bo'lib, qoida tariqasida BMT rasmiy tillarida tuziladi. Bundan tashqari diplomatiya tili deb diplomatik lug'atga kirgan maxsus terminlar va iboralar ham nazarda tutiladi.¹

Ma'lumki, har qanday so'z (leksema) o'zining xususiyatiga ko'ra umummuomaladagi so'z yoki termin bo'lishi mumkin. Hozirgi zamon fanlari ko'plab sohalarga bo'linar ekan, ularda ishlatiladigan leksemalarning o'rni, mohiyatini belgilab olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan termin va notermin so'z yoki so'z birikmalarini farqlash mezonlari aniq belgilangan.

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

Termin soʻz yoki soʻz birikmasi boʻlib, u imkon qadar bir maʼnolikka intiladi. Biroq maʼlum bir tushuncha ayrim vaqtda bir nechta termin bilan berilishi mumkin. Oddiy soʻz uchun tashqi shakl muhim boʻlsa, termin uchun birinchi oʻrinda uning mazmuni turadi. Shakl esa termin yaratilishining boshlangʻich paytida aniq boʻlmasligi mumkin. Bu terminning umumiy leksikadan farqini belgilab beradi. Soʻz uchun uning jaranglashi, yaʼni tovushlar bilan ifodalanishi, mazmuni va nomlanilayotgan narsa-buyum oʻrtasidagi bogʻliqlik bir butunlik sifatida gavdalansa, terminda bunday butunlik kuzatilmaydi.

Demak, “termin - fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan soʻz yoki soʻz birikmasi; atama. Terminlar bir maʼnoli boʻlishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega boʻlmasligi kabi belgilari bilan ham umumisteʼmoldagi soʻzlardan farqlanadi”. Diplomatik terminlar professionalizmlar qatlamiga oid tor doiradagi terminlardir. Diplomatik terminlarda sinonimiya hodisasining qoʻllanilishi ularning oddiy terminlardan farqini belgilab beradi.²

Leksik–semantik sath tilning bir–biri bilan uzviy bogʻliq boʻlgan ikki katta boʻlimini oʻz ichiga oladi. Bular leksikologiya (grekcha lexikos – soʻzga oid va logos – oʻrganish) va semasiologiya. Oʻrganadigan materialiga koʻra leksikologiya ikkiga boʻlinadi: xususiy leksikologiya, yaʼni u yoki bu til leksikologiyasi (masalan, turk, oʻzbek, rus, nemis va boshqa tillar leksikologiyasi) va umumiy leksikologiya. Umumiy leksikologiya barcha tillarga tegishli muammolarni oʻz ichiga oladi va turli xil til materiallariga eʼtibor qaratadi. Umumiy va xususiy leksikologiya bilan bir qatorda qiyosiy va solishtirma (kontrastiv) leksikologiya ham mavjud. Qiyosiy leksikologiya birinchi navbatda qardosh tillarning oʻxshash tomonlarini, solishtirma leksikologiya esa nafaqat qardosh tillar, balki qardosh boʻlmagan tillardagi oʻxshash va mos tomonlarni oʻrganadi.

Soʻzning leksik maʼnosi bilan bogʻliq boʻlgan keng muammolar koʻlamini semasiologiya predmeti oʻz ichiga oladi. «Semasiologiya» atamasi grekcha

² Nosirova S. Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining leksik-semantik va struktur tahlili // nomz.dis. aftoreferati, T., 2008

semacia – ma’no va logos – o’rganish so’zlaridan tashkil topgan. Ba’zi hollarda grekcha semaino – ifodalayman degan ma’noni anglatadi.

«Semasiologiya» atamasiga sinonim sifatida «semantika» atamasi ham ishlatiladi. So’z ma’nosiz umuman mavjud bo’lmasligi kabi leksikologiya va semantika ham bir–birlarisiz mavjud bo’lmaydi.

Leksik–semantik sath leksik birliklarga xos ma’noviy munosabatlarning barcha qirralarini, ulardagi xilma–xillikning o’ziga xosligini, ularning bir–biri bilan va tildan boshqa mayda sistema elementlari bilan bo’lgan o’zaro aloqadorligini (leksik paradigmatika), so’zga xos belgilarning semantik xilma–xilligini tilga xos tarzda ifodalashning shart va shakllarini (leksik sintagmatika) o’z ichiga oladi.

O’z nomidan, ya’ni «leksik–semantik» atamasidan ko’rinib turibdiki, u sistemaning ikki xil tabiatini o’rganadi. Birinchidan, leksik semantika tilning semantik sarhadlarida grammatik semantikadan farq qiladi. Ikkinchidan, ushbu sistema yordamida so’z semantikasining lug’at elementi sifatida bo’linishi yuz beradi.

Leksik sistemani tashkil etadigan nominativ vositalar majmuini lug’at tarkibidan farqlashda til sistemasi, lug’at strukturasi va leksik–semantik sistemalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o’zlarida so’z va uning ma’nolari o’rtasidagi o’zaro murakkab aloqaning natijasi va ushbu natijalarni umumlashtirishni aks ettiradi. Bunday o’zaro aloqa tilning ikki sohasi, ya’ni nominativ–tasnifiy va leksik birikish bo’yicha amalga oshadi.

Shuning uchun ham leksik–semantik kategoriyalar ikki xil bo’lishi mumkin. Birinchisi ko’p ma’noli so’zlarning leksik–semantik guruhini aks ettirib, tilda semantik variantlar ko’rinishida namoyon bo’ladi. Ularning har biri o’z ma’nolariga ega. Leksik–semantik kategoriyaning ikkinchi turi ma’lum bir so’zning ma’nolar majmuini emas, balki bir necha so’zlardan tashkil topgan so’zlar guruhining ma’nolarini aks ettiradi.

Leksik–semantik tahlil usuli bir qator tadqiqotlarda o’z aksini topgan bo’lsa ham, lekin terminlarni tahlil qilish bo’yicha to’liq tadqiqot ishi ko’rib chiqilmagan.

Ayniqsa, turk tili va o'zbek tilida diplomatic terminlarning qiyosiy tipologiyasi fanda yangilik hisoblanadi. Diplomatik terminlarni tahlil qilish jarayonida e'tibor leksik-semantik guruh tushunchasiga qaratiladi. Leksik-semantik tushuncha ostida ma'nolar o'xshashligiga ko'ra mujassamlashgan birliklar guruhi anglashiladi.

Turk va o'zbek tillarida diplomatik terminlarni leksik-semantik jihatdan o'rganishdan avval diplomatiya so'zini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Turk tilida "diplomatiya" so'zi "diplomasi" deb tarjima qilinib, tashqi siyosatdagi munosabatlar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida qabul qilinadi. Diplomatiya – tashqi aloqalar va davlat organlari tomonidan davlat vakolatini ta'minlash, xorijda tinch yo'l bilan uning huquqlarini himoya qilish va tashqi siyosat maqsadlariga erishish demakdir. Tor ma'noda diplomatiya davlatlararo muzokaralar olib borish va shartnomalar imzolash san'atidir.

Turk va o'zbek tilida diplomatik terminlarni leksik-semantik tahlil qilish jarayonida o'z-o'zidan bir qator leksik-semantik guruhlar vujudga keladi. Bu esa diplomatiyaning bo'limlariga qarab, terminlarni ajratib olishga olib keladi. Xususan:

1. Diplomatik faoliyatni bajaruvchi organlarga oid terminlar;
2. Diplomatik hujjatlar terminlari.

Diplomatik faoliyatni bajaruvchi organlarga oid terminlarga *diplomatik vakolatxona*, *elchixona*, *konsullik*, *Tashqi Ishlar Vazirligi*, *devonxona* va boshqa terminlar kiradi. Turk tilida *elchixona* so'zi *büyükelçilik* deb nomlanadi. Turk tilida *büyük* so'zi katta degan ma'noni bildirib, bu yerda *büyük+elçilik* – *katta elchilik* ma'nosini bermoqda. O'zbek tilida *elchixona* neytral ma'noda kelsa, turk tilida katta so'zi bilan bo'yoqdorlik berilmoqda. Ikkala tilda ham bu termin o'z milliy tilida atalib, xalqaro termin bilan nomlanmaydi. *Konsullik* termini esa turk tilida *konsolosluk* deyiladi. Leksik-semantik jihatdan ikki tilda bir xil vazifani tashuvchi bu so'z ikki davlat orasida aloqalar o'rnatilishi natijasi o'laroq tashkil etiladigan vakolatxona ma'nosini beradi. Diplomatik faoliyatni bajaruvchi organlarga oid terminlar asosan bir ma'noli bo'lib, ularda sinonimlik deyarli uchramaydi. Biroq hujjatlar hamda murojaatlarga oid terminlarda bu hodisa kuzatilishi mumkin.

Diplomatik hujjatlar terminlariga *shartnoma*, *memorandum*, *diplomatik protokol*, *deklaratsiya* va shu kabilar kiradi. Shartnoma turk tilida antlaşma deb tarjima qilinadi.

Memorandum so'zi o'zbek tiliga boshqa tildan qanday kirib, kelgan bo'lsa, shunday qo'llaniladi. Turk tilida esa *memorandum* so'ziga sinonim sifatida *muhtıra* so'zi ishlatiladi. Memorandum terminining semantik ma'nosi biron-bir muhim xalqaro masala ustida batafsil va dalillar bilan o'z pozitsiyasini himoya qilgan holda bahs-munozara, shaklida yozilgan hujjatdir. Memorandum termini turk tilida sinonimiya hodisasiga uchraydi.

Turk tilida xalqaro terminlarni turkchallashtirish hodisasiga ko'p bora duch kelamiz. Aynan mana shunday hodisadan biri deklaratsiya so'ziga ham tegishli. Deklaratsiya termini turk tilida *bildiri* deb ataladi. O'zbek tilida lotin tilidan kirib kelgan deklaratsiya so'zi turk tilida turkchaga tarjima qilingan holda termin sifatida muomalaga kiritilgan. Deklaratsiya - lot. *declaratio* — ma'lum qilaman, e'lon qilaman degan ma'nolarni bildirib, bir yoki bir necha hukumatlar, siyosiy partiyalar, xalqaro yoki jamoat tashkilotlarining dasturiy hujjat, muhim xalqaro voqea, qonunni umum e'tiboriga yetkazuvchi bayonoti hisoblanadi.

Umuman olganda, diplomatik terminlar asosan aniqlik, to'g'rilik, ma'lumotni oson yetkazib berish kabi sifatlarga yondashadi. Shu sababli ham ularda sinonimlik, bo'yoqdorlik, omonimlik kabi leksik xususiyatlar kam uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Nosirova S. Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining leksik-semantik va struktur tahlili // nomz.dis. aftoreferati, T., 2008
3. <http://www.mfa.gov.tr/dis-iliskiler-terminolojisi.tr.mfa>